

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIM
VAZIRLIGI**

**A.QODIRIY NOMLI
JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

Pedagogika – psixologiya fakul'teti

Pedagogika-psixologiya kafedrası

Pedepat

MAVZU **Barkamol avlod shakllanishida ustoz-shogird tizimining
roli**

Bajardi: *Xotamova Muxayyo*

Rahbar: *M.Qodirova*

Jizzax 2014

Talabalarni hozirgi davr talablari asosida tarbiyalashda ustoz - shogird tizimidan samarali foydalanish mamlakatimizda demokratik islohatlarni chuqurlashtirish va fuqoralik jamiyatini rivojlantirish, ta'lim jabhalarining modernizasiyalashuvi, ta'lim taraqqiyoti va talabalarni ilmiy ijodiy tafakkurini yuksaltirish jarayoni bilan chambarchas bog'liqdir. Ushbu jarayonda talabalar tarbiyasida ta'lim muasasalarida, ustoz - shogird hamkorligidan, pedagogik amaliyotdan, axloqiy va mehnat tarbiyasi shakllaridan samarali foydalanishni yanada takomillashtirish amaliy ahamiyat kasb etadi. Respublikamizda ta'limda amalga oshirilayotgan islohatlarning pirovard natijasi ham talabalarning o'z vazifalariga, burchiga, vatanimiziga, o'tkazilayotgan islohatlarga bo'lgan munosabatida aks etadi. Bunday sharoitda talabalarning umumiy saviyasi, ilmiy ijodiy tarbiyasi va mutaxassis sifatida tayyorgarligiga, ularning pedagogik fanlarni chuqur o'rganganligi holatiga bevosita bog'liqdir.

Mavzuning dolzarbligi yana shu bilan belgilanadiki, birinchi navbatda talabalarning dunyoqarashini yuksaltirishda pedagogikaning talabalar tarbiyaviy faoliyatiga ijobiy ta'sirini o'rganish ahamiyatlidir. Ushbu jarayonda pedagogik ta'limotning durdonalariga, talabalarning bo'lajak yetuk mutaxassis sifatida ta'lim olishida o'quv tarbiyaviy jarayonning muntazam suratda takomillashuvi, ularni modernizasiyalashayotgan jamiyatda malakaviy, ilmiy, ijodiy jihatdan yetuk fuqaro, mutaxassis sifatida tayyorlash, yangi demokratik qadriyatlarning mazmunini anglashi, tushinishlari zaruriyati bilan ham izohlanadi. Ikkinchidan, mamlakatimizning taraqqiyotida yangi davrga kirilganligi, ya'ni fuqarolik jamiyatini rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlarining mavjudligi ham talabalar, bo'lajak pedagog mutaxassislarning tarbiyasiga alohida e'tibor berish lozimligini talab qiladi.

Talabalar tarbiyasi bevosita amaliyot bilan bog'liq bo'lganligi uchun ham ta'lim jarayonida muhim rol o'ynaydi. Talabalar tarbiyasida yangi pedagogik texnologiyalarning ta'sirchan uslublari, vositalaridan samarali foydalanish, uning mazmunini ta'limdagi islohatlar natijalari bilan boyitish ham muhimdir.

Pedagogikaning fan sifatida shakllanib borishi ijtimoiy-iqtisodiy zaruriyat bo'lib, u turli fanlar bilan uyg'un holda qadim-qadim zamonlardan rivojlanib kelgan. Alloh, yeru osmonni, butun borliqni inson uchun yaratib, unga aql gavharini, tafakkur qilish qobiliyatini berdi. O'zining mavjudligi, har bir ishga qodirligini, ilmda tengsizligini, mehr-muruvvatda beqiyosligini bildirdi.

Islomda ham dunyoviy ilmlarning barchasi Qur'oni Karim ta'limoti bilan bog'liq va uyg'un holda berilgan.

Qadimgi Yunonistonda Suqrot, Pifagor, Aristotel, Platonlar g'oyaga asoslangan o'zlarining inson kamoloti va tarbiya masalalarining falsafiy negizini yaratgan. Aristotel «Iskandarga qilgan nasihati»da (U Iskandar Zulqarnaynning ustози bo'lgan va bu ham o'z navbatida Aristotelni o'z otasidan ustun qo'ygan) insonni eng yuksak fazilati taqvodorlik, iymonli ilmi bo'lishligini ta'kidlagan edi, ya'ni: «Taqvodorlik iymon vositasida kamol topadi. Iymon esa fikru andisha soyasida hosil bo'ladi», degan edi.

Ilmda xosiyat ko'p, chunki u – taraqqiyot kaliti – insonning qalb ko'zidir. Bunda ilm aqldan quvvat olganligi sababli aql ma'naviy haqiqatlari bilan insoniyat jamiyatining dunyoviy ishlarda intizom yaratadi. Bu haqda ulug' matematik va faylasuf olim Pifagorning quyidagi fikrlari fikrimizning isbotidir. Ular:

- «Donishmandlik nima?

Tartib-intizomlilik. Donishmand bo'lay desang hamma narsani joy-joyiga qo'y. O'tkinchi shuhratdan oqil kishining kundalik ishidagi tartib a'loroq»;

Yetuk shaxslarning (olimlar, donishmandlar, faylasuflar, yozuvchilar, shoirlar, qahramonlar, davlat arboblari va shu kabilar) hayoti va faoliyati ulug' ibrat, tarbiya sabog'idir.

Hozirgi kunda ham ilm-fanning turli sohalari, shuningdek, fan, adabiyot, san'at, falsafa va boshqa sohalarida ijod qilganlarning ismi sha'riflarini yo'qlash, qilgan ishlaridan foydalanish, insoniyatning og'irini yengil qilganda ularni eslab, yod qilib turilishi nihoyatda ahamiyatlidir.

Shu sababli ham yuqorida ta'kidlaganimizdek, olim-mutafakkirlarimiz olamga mashhur bo'lganlar. Ulardan ayrimlarining fikrlarini keltiramiz. Muhammad ibn Muso al-Xorazmiyning «Arifmetika» asari boshlanishidagi quyidagi fikrni keltiramiz: «Rahimli va mehribon tangriga loyiq maqtovlar aytaylik, unga minnatdorchiligimizni bildiraylik va uni ko'klarga ko'tarish bilan maqtovini oshiraylik, unga ibodat qilaylik, toki, u bizni adolat sari boshlab, haqiqat yo'lidan olib borish va bizga 9 ta raqamda iborat hind hisobi haqida bayon etishga qilgan qarorimizga yordam bersin».¹ Ya'ni «Arifmetika oddiy va murakkab masalalarini o'z ichiga oluvchi «Al jabr va al-muqobala hisobi haqida qisqacha kitob»ni taklif qildim, chunki meros tadqim qilishda, vasiyatnoma tuzishda, mol taqsimlashda va adliya ishlarida, savdoda va har qanday bitimlarda va shuningdek, yer o'lchash, kanallar o'tkazishda, (amaliy) geometriya va boshqa shunga o'xshash turlicha ishlarda kishilar uchun bu zarurdir».

¹ Мухаммад Мусо ал-Хоразмий. Танланган асарлар. – Т.: «Фан», 1983. – Б. 59.

Abu Ali ibn Sino – u «Shayx ur-ra'is», ya'ni «Olimlar boshlig'i», «Tabiblar podshohi», nomlariga sazovor bo'lgan olim. Uning tarjimai holidan quyidagi fikrni o'qishimiz mumkin: «Agar biror masaladan boshim qotib, qiyosda o'rtacha ta'rifni topa olmasam, jome' masjidiga borardim va namoz o'qib, yaratguvchiga yalborardim, natijada qorong'u narsalar menga oydinlashar, mushkullar osonlashar edi», deb yozgan edi.

Abu Ali ibn Sino o'zining quyidagi asarlari bo'yicha ma'rifatimiz, madaniyatimiz va ma'naviyatimiz tarixiga katta hissa qo'shdi:

- falsafa, tibbiyot va tabiatshunoslik sohalariga oid «Qonun fit tib» («Tib ilmlari qonuni»); «Kitob ash shifo» («Jonni saqlash kitobi»); «Kitob an-najot» («Najot kitobi»); «Kitob an-insof» («Insof kitobi») va shu kabi asarlar yaratdi;
- axloqqa va ma'rifatga oid «Risola fi ilm al-axloq» («Axloqqa oid risola»); «Risola fi fazilat an-nafs» («Nafsnı pokiza tutish haqida risola»); «Risola fi al-ahd» («Burch haqida risola»); «Kitob an-insof» («Adolat haqida kitob») va shunga o'xshash ta'lim-tarbiyaga oid boy ma'naviy merosni kelajak avlodga qoldirdi.

Buyuk davlat arbobi va ilm-fan homiysi, olim va o'z davri ta'lim tizimining bosh islohotchisi, ma'rifatparvar inson, dunyoda birinchi hisoblash markazining tashkilotchisi Mirzo Ulug'bek hayoti va faoliyatida ham dunyoviy ilmlar o'qitilishiga katta e'tibor berilgan.

Ulug'bek maktab va madrasalarda berilgan nazariy bilimlarni amaliyotga tadbiq etish maqsadida mudarrislar, talabalar bilan rasadxonada amaliy mashg'ulotlar o'tkazishni talab etib, bunga o'zi rahbarlik qilgan.

Qomusiy olim Abu Rayhon Beruniyning ta'lim-tarbiya sohasida o'sha zamonlarda, hattoki hozirda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan fikrlari pedagogika fani metodologik asoslarini tavsiflashda nihoyatda muhimdir. Ya'ni, u ta'lim berish jarayonida quyidagilarga e'tibor berish lozim, deb ta'kidlaydi:

- ta'lim oluvchini zeriktirmaslik kerak;
- talabalarga bilim berishda bir xil narsa va ma'lumotlarni doimo bir xil usulda o'rgatavermaslik kerak;
- uzviylik va izchillik asosida mavzularni qiziqarli qilib o'rgatish yo'llarini kashf etib borish kerak;
- ta'lim berishda mashg'ulotlarni ko'rgazmali qilib borishga erishish kerak;
- talabalarning bilim olishida ularning ilmlarni egallashiga tushunib harakat qilishini, ya'ni ijodiy intilishiga va qiziqishiga e'tibor doimo ta'lim beruvchining diqqat markazida bo'lmog'i lozim.

Abu Rayhon Beruniy ta'lim-tarbiya jarayonida muhitning ahamiyatiga alohida e'tibor bergan va u barcha illatlarning asosini bilimsizlik tashkil etadi, degan fikrda qat'iy turgan.

Beruniy inson kamolotidagi omillarni quyidagi asosiy qismlarga bo'ladi:

- ma'rifat va ta'lim beruvchining ilm-ma'rifatli bo'lishi;
- ilm-fanni e'tirof qiluvchi muhit;
- ijtimoiy muhit va to'g'ri tarbiya;

- ta'lim beruvchining yuksak axloqiy fazilatlarga ega bo'lish.

Bular bugungi pedagogikaning metodologik asoslarini yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Pedagogika fani metodologiyasining yaratilishida qomusiy olimlar bilan birga chex olimi Yan Amos Komenskiy, shveysariyalik pedagog Iogann Genrix Pestalossi, nemis pedagogi Adolf Disterverg, rus pedagogi K.D.Ushinskiylar katta xissa qo'shganlar.

Hozirgi kunda barkamol shaxs tushunchasi fuqarolik jamiyatini qurish va «Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot yaratish» uchun fidoiy farzand bo'lish tushunchalari bilan bog'lanib ketdi. Biz endi alohida-alohida yetuk shaxslargina emas, balki barkamol avlodni shakllantirishimiz va tarbiyalashimiz lozim. Ana shundagina barkamol avlodli, intellektual salohiyatli shaxslar jamiyatiga ega bo'lamiz. Bu borada muhtaram Prezidentimiz I.A.Karimov «Turkiston» gazetasi muhbiri bilan qilgan suhbatida quyidagi qimmatli va ko'rsatmali fikrni aytganlar: «Endi oldimizga nihoyatda muhim, kelajagimizni hal qiluvchi yangi vazifa turibdi. Bu vazifa erkin fuqarolik jamiyatining ma'naviyatini shakllantirish, boshqacha aytganda, ozod, o'z haq-huquqlarini yaxshi taniydigan, boqimandalikning har qanday ko'rinishlarini o'zi uchun or deb biladigan, o'z kuchi va aqliga ishonib yashaydigan, ayni zamonda o'z shaxsiy manfaatlarini xalq, Vatan manfaatlari bilan uyg'un holda ko'radigan komil insonni tarbiyalashdan iboratdir».¹

Demak, hozirda pedagogika fanining metodologik asosi tadqiqot metodlari, maqsad va vazifalari, yangi yo'nalishlari, ta'lim va tarbiya mazmuni, shakl va metodlari hamda boshqa bir qator muammolar yangicha yondashuv, ya'ni milliy mafkura asosida yaratilishini taqozo etmoqda. Shuningdek, Prezidentimiz I.A.Karimov o'z risola, nutq va suhbatlarida ilgari surgan fikrlar, g'oyalar, ana shu fikr va qarashlar asosida yaratilgan «Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillari» ham pedagogika fanining metodologik asosi sanaladi.

Shu bilan birga pedagogika fanining ham o'z ildizlari, sarchashmalari mavjud. Ma'lumki, ta'lim-tarbiya tarixiga nazar tashlar ekanmiz moziyda ham bosh masala inson, uni barkamol etib tarbiyalash bo'lganligining guvohi bo'lamiz. Eng qadimgi manbalardan boshlab, keyinchalik paydo bo'lgan ta'limiy-axloqiy asarlarda ham amaliy masalalar tahlil etilganki, uning asosida inson shaxsini ma'naviy-axloqiy shakllantirish muammosi markaziy muammo bo'lgan. Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» asaridan boshlab, Kaykovusning «Qobusnoma», Ahmud Yugnakiyning «Hibat ul-haqoyiq», Sa'diyning «Guliston», Alisher Navoiyning «Mahbub ul-qulub», Abdulla Avloniyning «Turkiy guliston yoxud axloq» va boshqa juda ko'p didaktik asarlarning har birini bir pedagogik darslik, desak yanglishmagan bo'lamiz. Biz ana shu asarlarga tayangan holda tadqiqot ishlarini olib borgan taqdirdagina pedagogikaning ilmiy asoslarini boyitgan bo'lamiz.

¹ Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. – 7 tom. – Toshkent: O'zbekiston, - B. 3-4.

Prezidentimiz I.A.Karimov bu borada shunday degan edi: «O'zbekistonning yangilash va rivojlantirishning o'z yo'li to'rtta asosiy negizga asoslanadi. Bu negizlar:

- umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik;
- xalqimizning ma'naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish;
- insonning o'z imkoniyatlarini erkin namoyon qilishi;
- vatanparvarlik».¹

O'zbekistonda mustaqillikni saqlab qolish va uni mustahkamlashda pedagogika fani va uning metodologik asoslariga bevosita bog'langan holda, har bir pedagogik masalaga ijodiy, rivojlantiruvchi nuqtai nazaridan yondashishi zarurdir. Ana shunda mazmunan yangilanayotgan zamon talablari asosida shakllanayotgan pedagogika – inson ruhiyatiga ta'sir etuvchi zamonaviy metodlar va texnologiyalar hosil bo'lgandagina haqiqiy milliy va zamonaviy tarbiyashunoslik faniga aylanishi muqarrar.

Bugungi kunda bir qator umumiy masalalar ishlab chiqilganki, bu masala falsafada ham, pedagogikada ham barobar mavjuddir. Bular jumlasiga tabiat bilan boshqa ijtimoiy hodisalar orasidagi o'zaro aloqalar: dunyoqarashni, axloqiy, mehnat va estetik tarbiyani shakllantirish masalalari; shaxs va jamoa munosabatlari; ta'lim jarayonining mohiyatini tushunish hamda bilishning dialektik nazariyasini ishlab chiqish bilan bog'liq bo'lgan geneseologik masalalar va boshqa muammolar kiradi. Pedagogikaning aniq masalalarini ishlab chiqishda falsafaning sosiologiya, etika (axloq-odob), estetika kabi tarmoqlari katta ahamiyatga egadir.

Insonning aqliy rivojlanish qirralarini, jihatlarini o'rganadigan boshqa fanlardan farqli o'laroq, pedagogika inson shaxsi, uning taraqqiyot bosqichlari bilan shug'ullanadi. Bugungi kunda pedagogika fani ko'p tarmoqli fan sifatida namoyon bo'lmoqda. Jumladan, pedagogika fanlari tizimiga etnopedagogika, maktabgacha ta'lim pedagogikasi, kasbiy ta'lim pedagogikasi, oliy maktab pedagogikasi, axloq tuzatish va mehnat pedagogikasi, jismoniy kamolot pedagogikasi, harbiy pedagogika, maxsus pedagogika: kar-soqovlar (surdo) pedagogikasi, ko'rlar (tiflo) pedagogikasi, aqliy jihatdan orqada qolgan (oligofreno) pedagogika, logopedagogika, pedagogik mahorat kiradi

Ustoz - shogird hamkorligidagi asosiy masalalardan biri ta'lim tizimidagi islohatlar bilan uzviy bog'liqligidadir. Ushyu masalaning yechimiga qaratilgan Kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardan iboratdir:

1.Shaxs kadrlar tayyorlash tizimining bosh subyekti va obyekti, ta'lim sohasidagi xizmatlarining istemolchisi va ularni amalga oshiruvchidir.

Shaxs uzluksiz ta'lim jarayonida dunyoviy, ilmiy bilimlarni o'zlashtiradi, fan asoslarini puxta egallaydi, ishlab chiqarish sohalari bilan tanishadi, shuningdek, o'zida ijtimoiy ta'sirlar yordamida ma'naviy – axloqiy sifatlarni tarbiyalab boradi.

¹ Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlool, iqtisod, siyosat mafkura. I tom. – Toshkent: O'zbekiston, 1996. – B. 76.

Shaxsda o'zlashtirilgan bilim, faoliyat ko'nikmalari va hayotiy tajriba asosida kasbiy mahorat ham shakllanib boradi. Yuksak ma'naviy – axloqiy va yuqori darajadagi kasbiy malakaga ega bo'lish uchun shaxs o'z oldiga muayyan maqsadni qo'ya olishi hamda unga erishish yo'lida tinimsiz izlanishi, o'qib – o'rganishi lozim. Shundagina u ijtimoiy raqobatga chidamli, malakali kadr bo'lib shakllanadi.

O'z–o'zini anglash tuyg'usiga ega bo'lish, ta'lim sohasidagi xizmatlardan to'laqonli, samarali foydalana olish, ilmiy va kasbiy bilimlarni puxta o'zlashtirishga erishish shaxsga yetuk mutaxassis bo'la olish uchun poydevor yaratadi. Inson kamoloti, eng avvalo uning o'ziga bog'liqdir. Shu bois milliy dasturda shaxs va uning kamolotini shakllantirishga alohida e'tibor qaratilgan.

“Ta'lim xizmatlarining iste'molchisi sifatida shaxsga davlat ta'lim olish va kasb-hunar tayyorgarligidan o'tish kafolotlanadi. Ta'lim olish jarayonida shaxs davlat ta'lim standartlarida ifoda etilgan talablarni bajarishi shart.

Shaxs ta'lim xizmatlarining yaratuvchisi sifatida tegishli malaka darajasini olgach, ta'lim, moddiy ishlab chiqarish, fan, madaniyat va xizmat ko'rsatish sohasida faoliyat ko'rsatadi va o'z bilimi hamda tajribasini o'rgatishda ishtirok etadi”.¹

2. Davlat va jamiyat ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimining faoliyatini tartibga solish va nazorat qilishni amalga oshiruvchi kadrlarni tayyorlash va ularni qabul qilib olishning kafillaridir.

Shaxs kamoloti nafaqat o'zi uchun, balki davlat va jamiyat taraqqiyoti, ravnaqi uchun ham muhim ahamiyatga egadir. Binobarin, fuqarolari yuksak ma'naviyatga ega jamiyat har tomonlama taraqqiy etadi.

Shaxs va davlat (jamiyat) o'rtasidagi aloqa ikki tomonlama xususiyatga ega. Shu bois har qanday davlat (jamiyat) o'z fuqarolarning yashashi, mehnat qilishi, iqtidori va salohiyatini ro'yobga chiqarishi, uni namoyon etadi olishi uchun yetarli darajada shart-sharoit yaratib bera olishi lozim. Respublika ta'lim tizimida davlat va jamiyat shaxsning har tomonlama shakllanishi, o'zligini namoyon etadi olishi uchun yetarli darajada shart-sharoit yaratib berish mas'uliyatini o'z zimmasiga oluvchi subyekt sifatida namoyon bo'ladi.

Davlat va jamiyat ta'lim muassasalarining yuqori malakali raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash yo'lidagi faoliyatini ham uyg'unlashtiradi hamda quyidagilarga kafolot beradi:

-fuqarolarning bilim olish, kasb tanlash va o'z malakasini oshirish huquqlarining ro'yobga chiqarilishiga;

-majburiy umumiy o'rta ta'lim hamda akademik lisey yoki kasb-hunar kollejida ta'lim olish yo'nalishini tanlash huquqi asosida majburiy o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini olishga;

-davlat grantlari yoki pulli – shartnomaviy asosda oliy ta'lim va oliy o'quv yurtidan keyingi ta'limni olish huquqiga;

-davlat ta'lim muassasalarini mablag' bilan ta'minlashga;

¹ Kadrlar tayyorlash milliy dasturi // Oliy ta'lim: me'yoriy hujjatlar to'plami. – Toshkent: Sharq nashriyot – manbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati. 2001. – B. 30.

-ta'lim oluvchilarning o'qishi, turmushi va dam olishi uchun shart – sharoitlar yaratish borasidagi vazifalarning hal etilishida jamoatchilik boshqaruvini rivojlantirishga;

-ta'lim jarayoni qatnashchilarini ijtimoiy jihatdan qo'llab – quvvatlashga;

-sog'liq va rivojlanishida nuqsoni bo'lgan shaxslarning ta'lim olishiga.¹

3. Uzluksiz ta'lim malakali, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning asosi bo'lib, ta'limning barcha turlari, davlat ta'lim standartlarini, kadrlar tayyorlash tizimi tuzilmasi va uning faoliyat ko'rsatish muhitini o'z ichiga oladi.

Uzluksiz ta'lim kadrlar tayyorlash tizimining asosi, O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy – iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlovchi, shaxs, jamiyat va davlatning iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy – texnikaviy va madaniy ehtiyojlarini qondiruvchi ustuvor soha bo'lib, ijodkor, ijtimoiy faol, ma'naviy bosh shaxsning shakllanishi va yuqori malakali raqobatbardosh kadrlarning jadval tayyorlashi uchun zarur shart – sharoitlarni yaratadi.²

Uzluksiz ta'limni tashkil etish muayyan tamoyillarga asoslanadi. Jumladan:

-ta'limning ustuvorligi;

-ta'limning demokratlashuvi;

-ta'limning insonparvarlashuvi;

-ta'limning ijtimoiylashuvi;

-ta'limning milliy yo'naltirilganligi;

-ta'lim va tarbiyaning uzviy bog'liqligi, bu jarayonning har tomonlama kamol topgan insonni shakllantirishga yo'naltirilganligi;

-iqtidorli yoshlarni aniqlash, ularga ta'limning eng yuqori darajasida, izchil ravishda fundamental va maxsus bilim olishlari uchun shart – sharoitlar yaratish.¹

Uzluksiz ta'lim quyidagi ta'lim turlarini o'z ichiga oladi:

-maktabgacha ta'lim;

-umumiy o'rta ta'lim;

-o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi;

-oliy ta'lim;

- oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim;

-kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash;

-maktabdan tashqari ta'lim.

Maktabgacha ta'lim bolaning sog'lom, har tomonlama kamol topib shakllanishini ta'minlaydi, uni o'qishga intilish hissini uyg'otadi, muntazam ta'lim olishga tayyorlaydi hamda bola olti-yetti yoshga yetguncha davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalari va oilalarda amalga oshiriladi. Bu kabi ta'lim muassasalarining faoliyatini tashkil etishda mahallalar, jamoat va xayriya tashkilotlari, xalqaro fondlar faol ishtirok etadi.

Keyingi yillarda maktabgacha ta'lim muassasalarining yangi tarmog'i shakllanib bormoqda. Bu o'rinda "Xonadon bog'chasi" hamda "Bolalar bog'chasi-boshlang'ich maktab" majmualarini misol qilib keltirish mumkin. Maktabgacha

ta'lim muassasalarida bolalarga tasviriy san'at, musiqa, til va kompyuter savodxonligini o'rgatuvchi guruhlar tashkil etilmoqda. Bu kabi harkatlar maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" talablari asosida ma'naviy-axloqiy tarbiyasiga xizmat qiladi.

Umumiy o'rta ta'lim to'qqiz yillik majburiy xarakterdagi umumiy hamda uch yillik o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limidan iborat. Umumiy o'rta ta'lim boshlang'ich ta'limni ham qamrab oladi. Mazkur bosqichda o'quvchilarning fanlar asoslari bo'yicha muntazam bilim olishlari, ularda bilim olish ehtiyojining yuzaga kelishi, asosiy o'quv-ilmiy va umummadaniy bilimlarning o'zlashtirishlari, milliy va umumbashariy qadriyatlarga asoslangan ma'naviy-axloqiy fazilatlar, mehnat, ijodiy fikrlash, atrof-muhitga ongli munosabatda bo'lish, shuningdek, kasb tanlash ko'nikmalarining shakllanishi uchun pedagogik shart-sharoit yaratiladi. Davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi attestat o'quvchilarning umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ma'lumotiga egaliklarini belgilaydi.

O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish vazifasi maktab jamoasi va ot-onalar hamkorligida o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik tashxis markazlari rahbarligida amalga oshiriladi.

O'qish muddati uch yil bo'lgan majburiy o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi uzluksiz ta'lim tizimining mustaqil turi sanalib, umumiy o'rta ta'lim negizida tashkil etiladi. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining ikki muhim yo'nalishi bo'lgan-akademik lisey yoki kasb-hunar kollejdida ta'lim olish o'quvchilar tomonidan ixtiyoriy ravishda tanlanadi.

Akademik lisey o'quvchilarining imkoniyatlari va qiziqishlarini hisobga olgan holda ularning jadal intellektual rivojlanishi chuqur sohashtirilgan, tabaqalashtirilgan, kasbga yo'naltirilgan ta'lim olishlarini ta'minlash maqsadida davlat ta'lim standartlariga muvofiq o'rta maxsus ta'lim beruvchi, yuridik maqomga ega ta'lim muassasasidir.

Akademik liseylarda o'quvchilar o'zlari tanlab olgan ta'lim yo'nalishi (gumanitar, texnika, agrar va boshqa sohalar) bo'yicha bilim saviyalarini oshirish hamda o'zlarida fanni chuqur o'rganishga qaratilgan maxsus kasb-hunar ko'nikmalarini shakllantirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Akademik liseylar asosan oliy o'quv yurtlari qoshida tashkil etiladi. Kasb-hunar kollejlari esa o'quvchilarning muayyan kasb-hunarga moyilligi, layoqatlari, bilim va ko'nikmalarini chuqur rivojlantirish, ularning tanlangan yo'nalishlar bo'yicha bir yoki bir necha zamonaviy kasb sirlarini egallash imkonini beradi.

Kasb-hunar kolleji o'quvchilarning kasb-hunarga moyilligi, bilim va ko'nikmalarini chuqur rivojlantiruvchi, tanlab olingan kasb-hunar bo'yicha bir yoki bir necha ixtisosni egallash imkonini yaratish maqsadida tegishli davlat ta'lim standartlari doirasida o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini beruvchi, yuridik maqomga ega ta'lim muassasasidir.

Kasb-hunar kollejlari yangi tipdagi ta'lim muassasalari bo'lib, ularning jihozlanganlik darajasi, pedagogik tarkibning puxta tanlanganligi, shuningdek, o'quv jarayonining zamonaviy texnika va texnologiyalar yordamida tashkil etilishi alohida e'tiborga loyiq.

Akademik lisey va kasb-hunar kollejlarining bitiruvchilariga davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi diplomlar beriladi. Ushbu diplomlar asosida bitiruvchilar ta'limning keyingi bosqichlarida o'qishni davom ettirish yoki egallangan ixtisos va kasb-hunar bo'yicha mehnat faoliyati bilan shug'ullanish huquqini qo'lga kiritadilar.

Oliy ta'lim o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi negiziga asolanib, ikki bosqichda (bakalavriyat hamda magistratura) tashkil etilib, mutaxassislar yo'nalishlari bo'yicha xalq xo'jaligining turli sohalariga oliy ma'lumotli mutaxassislarni tayyorlaydi. Oliy ta'lim muassasalariga talabalar qabul qilish davlat grantlari negizida va pullik-shartnoma asosida amalga oshiriladi.

Bakalavriyat – mutaxassisliklar yo'nalishi bo'yicha fundamental va amaliy bilim beradigan, ta'lim olish muddati kamida to'rt yil davom etadigan tayanch oliy ta'lim.

Bakalavr darajasiga ega bo'lgan shaxs oliy ta'lim tizimi yo'nalishidagi o'zi tanlagan soha bo'yicha oliy ma'lumotli mutaxassis hisoblanadi va davlat klassifikatorida belgilangan lavozimda ishlash huquqiga ega bo'ladi.

Magistratura aniq mutaxassislik bo'yicha fundamental va amaliy bilim beradigan, bakalavriyat negizidagi ta'lim bo'lib, magistarturadagi tahsil yakuniy klassifikasion davlat attestasiyasiga muvofiq olib boriladi.

Magistr bakalavr darajasidagi mutaxassisdan farqli ma'lum ixtisoslik bo'yicha ta'lim olgan yuqori malakali mutaxassis hisoblanib, ilm-fan sohasida, ishlab chiqarishning mas'uliyatli lavozimlarida faoliyat ko'rsatadi. U aspiranturaga kirish huquqiga ega.

Ustoz - shogird hamkorligining o'ziga xos xususiyatlaridan biri shrgirdlarning axloqiy tarbiyasi masalasiga alohida e'tibor berilganligida namoyon bo'ladi.

«Axloq» ijtimoiy ong shakllaridan biri bo'lib, uning mohiyati, shaxs xatti-harakatlari, yurish-turishi, turmush tarzi, hayot kechirish tamoyillari, qoidalari, shuningdek, ijtimoiy munosabatlar mazmunini ifodalaydi. Shu bois, axloq ijtimoiy xodisa sifatida jamiyat ma'naviy-ruxiy hayotida o'ziga xos muhim ahamiyatga ega. Muayan millat qiyofasi, uning kishilik taraqqiyotidagi o'rni belgilanayotgan jarayonda maskur tushuncha asosiy mezonlardan biri bo'lib hizmat qiladi.

«Axloq» tushunchasi oila fikri asosida tartibga soluvchi faoliyat tarzida kishilik jamiyatining ilk bosqichida shakllangan. Qadimdan oq ijtimoiy-falsafiy, psixologik, pedagogik, tarixiy, badiiy, etnografik va madaniyatshunoslikka oid asrlarda ushbu tushuncha turli ko'lamda ishlatilib kelingan.

Axloq (arabcha xulq-atvor demakdir) – ijtimoiy ong shakllaridan biri, ijtimoiy tartib-qoida bo'lib, bu tartib-qoida ijtimoy hayotning barcha sohalarida kishilarning xatti-harakatini tartibga solish vazifasini bajaradi. Axloq omma faoliyatini tartibga solishning boshqa shakllari (o'quv, ishlab chiqarish, xalq ananalari) da o'z talablarining asoslanishi amalga oshirilishi va omma fikri asosida tartibga solinishi bilan farq qiladi. Axloq talablari barchaga taalluqli, biroq hyech kimning ko'rsatmasi, hyech qanday maxsus buyruq asosida bajarilmaydigan, ixtiyoriy amalga oshiriladigan burch shakliga kiradi. Axloq talablarining bajarilishi faqat ma'naviy ta'sir ko'rsatish shakllari doirasida yuz beradi.

Axloq shaxs taraqqiyotining yuqori bosqichi bo'lgan ma'naviy komillik asosini, poydevorini tashkil etadi.

Bir so'z bilan aytganda axloq-jamiatda qabul qilingan, jamoatchilik fikri bilan ma'qullangan xulq-odob normalari majmuidir.

Ma'naviy-axloqiy tarbiyani tashkil etish ijtimoiy tarbiyaning muvaffaqiyatini ta'minlovchi eng muhim omil sanaladi. Ma'naviy-axloqiy ta'lim va tarbiya o'zaro bog'liqlik, uzviylik, aloqadorlik hamda dialektik xarakterga ega bo'lib, shaxs ma'naviy-axloqiy kamolotini shakllantirish asosi hisoblanadi. Ma'naviy-axloqiy ta'lim o'quvchilarga ma'naviy-axloqiy munosabatlar mohiyati to'g'risida tizimlangan bilimlarni berish, ularda ma'naviy-axloqiy bilimlarni egallashga bo'lgan ehtiyojni yuzaga keltirish ma'naviy-axloqiy ongini shakllantirish jarayoni bo'lib, izchil, uzluksiz, tizimli tarzda tashkil etilishi lozim.

O'quvchilar ma'naviy-axloqiy sifatlarining qaror topishi tarixiy- obyektiv sharoitda shaxs tomonidan jamiyat taraqqiyoti, insonlarning o'zaro hamkorlik, aloqa doiralarining kengayishi takomillashuviga ko'rsatiladigan ta'sirning ijobiy, mo'tadil holatda bo'lishini ta'minlashda ko'rinadi. Ma'naviy-axloqiy sifatlarning qaror topishi quyidagi umumiy mazmun asosida ro'y beradi:

- o'quvchining ma'naviy-axloqiylik darajasi ijtimoiy munosabatlar jarayonida, uning jamiyat, atrof-muhit va tabiatga bo'lgan yondashuvida namoyon bo'ladi;

- o'quvchining ma'naviy-axloqiylik darajasi jamiyatning ijtimoiy-ma'naviy taraqqiyoti darajasiga bog'liq;

- o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy kamoloti obyektiv va subyektiv shart-sharoitlarning o'zaro uyg'unlashuvi asosida tashkil etiladigan uzluksiz, tizimli ta'lim-tarbiyaninsh yo'lga qo'yilishi natijasida vujudga keladi;

- o'quvchining ma'naviy-axloqiy kamoloti ijtimoiy munosabatlarning yo'lga qo'yilishida ijobiy natijalarga olib keladi.

O'quvchilarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasini amalga oshirish quyidagi tamoyillarga muvofiq yo'lga qo'yiladi:

1. Ma'naviy-axloqiy tarbiyaning ijtimoiy-g'oyaviy asosga ega ekanligi.
2. Ma'naviy-axloqiy ta'lim va tarbiyaning izchil, tizimli, uzluksiz tashkil etilishi.
3. Ma'naviy-axloqiy ta'lim-tarbiya g'oyalarining aniq maqsadga yo'naltirilganligi.
4. O'quvchilar ma'naviy-axloqiy madaniyatini shakllantirishga har tomonlama (kompleks) yondashuv.
5. O'quvchilar ma'naviy-axloqiy tarbiyasini tashkil etishda tarixiy vorislik hamda umuminsoniy va milliy qadriyatlar, ularda ilgari surilgan g'oyalarga tayanib ish ko'rish.
6. Ijtimoiy faoliyatning insonparvarlik va demokratik xususiyatlarga ega ekanligi.
7. Ma'naviy-axloqiy ong va faoliyat birligi.

Ma'naviy-axloqiy tarbiyani tashkil etish – faoliyat jarayoni hisoblanadi. Ushbu jarayon nafaqat ijobiy xislatlarni shakllantirishni, balki salbiy sifatlarni bartaraf etishni, har qanday axloqsiz xatti-harakatlarga qarshi kurashga

o'quvchilarni undashni ham ko'zda tutadi. Ma'naviy-axloqiy tarbiya jarayonida o'quvchi(tarbiyalanuvchi) ning o'z-o'zini tarbiyalashni kuchaytirishi katta ahamiyatga ega.

Ma'naviy-axloqiy tarbiya jarayonida barkamol shaxs tarbiyalanib voyaga yetkaziladi.

Shaxsning ma'naviy-axloqiy madaniyatining shakllantirishga quyiladigan hozirgi zamon talablarini amalga oshirish muammolari dinamik xarakterga ega bo'lib, ijtimoiy tuzum taraqqiyoti bilan bog'liqdir. Bu muammoni falsafa etnografiya, etika,estetika fanlari tadqiq etadi.

Madaniyat – arabcha so'z bo'lib, u jamiyatning ishlab chiqarish, ijtimoiy va ma'naviyatida qo'lga kiritilgan yutuqlari majmuidir.

Demak, madaniyat – inson faoliyati mahsuli natijasi sifatida, insonlarning moddiy va ma'naviy faoliyatlari jarayonida vujudga keladi.

Moddiy va ma'naviy madaniyatning o'zaro aloqasi va o'zaro ta'siri natijasida aqlan yetuk, axloqan yaxlit shakllangan shaxs tarkib topadi.

Inson biron moddiy boylik yaratar ekan, avvalo, uning qurilishi, ishlab chiqarish jarayoni va ta'lim-tarbiyaviy natijasini amaliy ahamiyatini oldindan ko'ra biladi.

Shaxs sifatida shakllanadigan o'quvchiing ma'naviy kamolotida axloqiy madaniyatning ahamiyati katta. Axloqiy madaniyatga axloqiy bilimlar, malaka va ko'nikmalar, axloq qoidalari yordamida o'quvchining xulq-atvori, xatti-harakatlarini boshqarish tizimi kiradi. Axloqiy madaniyat o'quvchining ko'p qirrali faoliyat davomida shakllanib va takomillashib boradi.

Axloqiy madaniyatning ko'rinishlari, uning qirralari va namoyon bo'lish shakllari xilma-xildir. Insonparvarlik, halollik, tashabbuskorlik, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, erksevarlik, faollik, ijodkorlik, poklik va shu kabi qator muhim tushunchalar axloqiy madaniyat tushunchalaridir. Bu xislatlar faoliyat jarayonida ma'naviy madaniyatning boshqa madaniyat qirralari bilan birgalikda o'quvchi ongi va hulqiga ta'sir etadi.

Ma'naviy-axloqiy mazmundagi ta'lim tarbiya ishini tashkil etish ta'lim muassasi pedagogik jamoa umumiy ishining tarkibiy qismi bo'lib, ularni o'tkazishda maktab rahbariyati, kasaba uyushmasi a'zolari, ota-onalar qo'mitasi, o'quvchilarning o'z-o'zini boshqarish organlari, shuningdek, jamoa tashkilotlari, hodimlari ham ishtirok etadi.

Ta'lim muassasalarida ma'naviy axloqiy-tarbiyani yo'lga qo'yishning quydagi turlari alohida ahamiyatga egadir: suhbatlar, uchrashuvlar, ertaliklar, haftaliklar, oyliklar, ko'riklar, konfrensiya, bahs-munozara va boshqalar.

Ma'naviy-axloqiy tarbiyani tashkil etishda tarbiyaviy tadbirlar umumiy tarbiyaning ajralmas qismi sifatida ta'lim muassasalari faoliyatini tashkil etishda o'z o'zni va ahamiyatiga ega.

Ma'naviy-axloqiy mazmundagi tadbirlarni o'tkazish ushbu tarbiyani tashkil etishdagi ko'zlangan asosiy maqsadga hizmat qilmog'i kerak.

O'zida yuksak fazilat ma'naviy-axloqiy poklik va insoniy kamolot kabi xislatlarni bir-biri bilan uyg'unlashtiradigan shaxs tarbiyasi ta'lim-tarbiya tizimining bosh masalasi hisoblanadi.

Bugungi yoshlarda zamonamizning eng mashhur (ijobiy ma'noda) kishilarga o'xshashlik, namunaning tarbiyaviy kuchi o'quvchilarning (bolalarning) taqlid qilishga moyilligiga asoslangandir. Yoshlar ko'pincha ota-onalariga, ma'lum bir ijobiy yutuqlarga erishgan qarindoshlariga, o'qituvchilariga va mashhur qahramonlarga taqlid qiladi.

Turli yoshdagi bolalarga taqlid qilishiga moyillik turlicha bo'ladi.

Bolalar ulg'ayib borgan sari tevarak atrofidagi katta yoshdagi kishilarning xatti-harakatlariga taboro tanqidiy nazar bilan qaraydigan bo'ladi. Shu yoshdagi bolalar o'z nuqtai nazarlaridan taqlid qilishga arzigulik deb bilgan kishilarni o'zlari uchun namuna deb biladilar va ularga e'tiqod qo'yadilar.

Ma'lumki, tarbiya vositasi bo'lgan namuna mohiyat e'tibori bilan e'tiqodga yaqin turadi. E'tiqod tushunchasi yoshlarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishda muhim o'rin tutadi. Bunda tarbiyachi o'quvchilarning shaxsiy tajribasiga tayanib ularning ongiga, hissiyotlariga ta'sir qiladi. Shu yo'l bilan yoshlarda ijobiy axloqiy sifatlar tarkib topa boradi hamda mustahkamlanadi ulardagi salbiy hulq odatlari yo'qotiladi.

O'quvchilarda e'tiqod hosil qilish jarayonida etikaga oid tushunchalar ham tarkib topib boradi.

E'tiqod tarbiyasini amalga oshirishda har bir o'quvchining qiziqish doirasini, maylini, fikr-o'yini diqqat bilan o'rganish talab etiladi.

Ma'naviy-axloqiy tarbiya yoshlarning barkamol bo'lib shakllanishida mustahkam asosdir.

Ta'lim oluvchilar ma'naviy-axloqiy tarbiyasida o'ziga xos metodlar, shakllar va vositalar mavjud bo'lib, ular ushbu sohadagi faoliyat olib borishning samarasini belgilashda metodik asos ham bo'ladi. Yoshlar orasida olib boriladigan ma'naviy-axloqiy tarbiyaning quyidagicha metod, shakl va vositalari bor. Ular haqida qisqacha ma'lumot beramiz:

1. Ma'naviy-axloqiy mavzudagi suhbatlar: talabaning muomala madaniyati; talabaning ma'naviy qiyofasiga qo'yiladigan talablar; talabalarda vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish – dolzarb vazifa; ma'naviyat tushunchasi; Vatan tuyg'usi – muqaddas tuyg'u; talabaning tashqi ko'rinishi va uning ichki dunyosi; kitoblar – bilim va ma'naviyat manbai; talabalarda badiiy tafakkurni shakllantirish; mustaqillik nashidalari; yoshlar intellektual salohiyati – kelajak muvaffaqiyati; fidokor yoshlar qanday bo'lishi kerak?; ajdodlar merosi – ma'naviyatimiz sarchashmalari; zamonaviy urf-odatlarda madaniyat va ma'naviyat; Amir Temur yoshlar kamoloti haqida; Vatan qahramonlari va ularning jasoratlari; mustaqil O'zbekiston jahon nigohida; O'zbekistonning tashqi siyosati va uning ustivor yo'nalishlari; yuksak madaniyat va ma'naviyat – jamiyat taraqqiyotining poydevori; tarix – millat ma'naviyatining negizi kabi darslarni uyushtirish. Bunda turli fanlardan mavzularini o'tishda o'sha fanda tarbiyaga oid lavha va epizodlarni namoyish qilish amalga oshiriladi.

Ma'naviy-axloqiy tarbiya tizimida ma'naviy-axloqiy mavzudagi suhbatlar alohida ahamiyatga ega. Bunday suhbatlar mazmun jihatidan rang-barang bo'lishi mumkin.

2. Hikoya;

3. Tushuntirish;

4. Ma'ruza va seminar tashkil etish va uyushtirish: ma'naviyatimizning buyuk timsollari; jadidchilik harakati namoyondalari; ma'naviy tarbiyada ommaviy axborot vositalarining roli va o'rni; mehr va muruvvat – ulug' insoniy qadriyat; axloq kategoriyalari va barkamol avlod tarbiyasi; ezgulik va muqaddas kitoblar; ma'naviy-axloqiy tarbiya – kasbiy barkamollik asosidir va shu kabilar;

5. Namuna ko'rsatish. Bunda ustoz va murabbiylarning shaxsiy ibrat-namunasi e'tiborga olinadi hamda «ibrat-namuna – hayot dorilfununi» ruknida faoliyatni doimo yuritib turish lozim bo'ladi va bu jarayonni talabalar o'qiydigan o'quv muassasalaridagi ustoz-murabbiylar hayoti va faoliyatidan boshlagani ma'qul;

Ijobiy shaxsiy namuna – talabalar shaxsini shakllantirishda alohida o'rin egallashi mumkin bo'lgan metod bo'lib, shaxsga shaxs orqali ta'sir etishning eng obyektiv yo'li hisoblanadi. Yoshlar balog'at yoshiga yetib, mustaqil hayotni boshlagunlariga qadar bilish, o'rganish jarayonida o'qituvchi-tarbiyachiga, ota-onaga, qo'ni-qo'shniga, doston, drama yoki adabiy asarlar qahramonlariga taqlid qilishadi. Talabalar o'zlari yoqtiradigan odamga taqlid qilish natijasida o'zlarini mag'rur tutadilar, xatti-harakatlari xuddi kattalarnikidek tuyuladi. Ya.N.Komenskiyning fikricha, «Bola o'qishni o'rganishdan oldin taqlid qilishni o'rganadi». Taqlid qilish orqali yoshlarning o'z tajribasi qo'shilib ketib, ularda yangi shaxsiy xislatlar paydo bo'la boshlaydi.

Umuman, ta'lim-tarbiya jarayonida o'qituvchi odobi, a'lo o'qiydigan talabalarni boshqalarga namuna qilib ko'rsatishi orqali ham talabalarning tarbiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatish mumkin. Biroq, namuna qilib ko'rsatuvchi talabaning shaxsini haddan ziyod maqtamaslik va o'zgalarning shaxsiyatiga tegmaslikka alohida e'tibor berishi lozim.

6. Kishi ijobiy xislat va fazilatlarini insonning olijanoblighi ekanligiga ishontirish.

Ishontirish tarbiya metodi – talabalar ma'naviy-axloqiy dunyoqarashini shakllantirishdagi asosiy metodlaridan biri hisoblanadi. Ishontirish metodida o'qituvchi talabalar ongiga, ruhiga, oriyatiga, irodasiga ta'sir etish yo'li bilan ularning xarakteridagi axloqiy intellektual va boshqa ijobiy xislatlarini shakllantiradi, illatlarni kamaytiradi. Salbiy xislatlardan saqlaydi. Ishontirish shakllanayotgan shaxsga umuminsoniy qadriyatlarga, milliy udum va an'analarga, falsafiy dunyoqarashga asoslanib, milliy mafkuraning asl mohiyatini chuqur tushuntirishga tayanadigan metod hisoblanadi.

7. Bahs-munozaralar uyushtirish. Bunda qutlug' sanalarni nishonlash bo'yicha, allomalarning ma'naviy-axloqiy tarbiyaga oid qarashlari bo'yicha kitob va kitob xosiyati haqida; kasb va hunar haqida; hamkolik – taraqqiyot omili xususida; «zukkolik va bilimdonlik – aql oynasi» bo'yicha; giyohvandlik, terrorchilik va ularning barkamol avlod tarbiyasiga ta'sirlari to'g'risida, ma'naviy yetuk va ma'naviy qashshoq insonlarning jamiyatdagi o'rni haqida; «mustaqillik va ilm-fan»; «mustaqillik va ta'lim-tarbiya», «mustaqillik va imkoniyat hamda mas'uliyat» ruknlaridagi jarayonlar; halollik va fidoiylilik va h.k. shu kabilar orqali

tarbiyaviy tadbirlar amalga oshiriladi hamda bahs-munozarani boshqaruvchi mashg'ulotning ma'naviy-axloqiy jihati bo'yicha xulosalarni bayon qiladi.

Talaba-yoshlar ma'naviy-axloqiy kamolotini ta'minlashda munozaralar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ma'naviy-axloqiy mavzulardagi munozaralar talabalarda muayyan holat, hodisalarga nisbatan to'g'ri baho berishga, bu borada fikr yuritishga o'rgatish hamda e'tiqodni shakllantirishga xizmat qiladi. Munozara o'y-fikrlarni tartibga soladi, talabalarni mustaqil fikrlashga, bahs yuritishni tashkil etishga, o'rtog'ini tinglashga, o'z fikrini ilgari surish va uni obrazli tarzda himoya qilishga, ayni chog'da o'z xatolarini tan olishga o'rgatadi.

8. Uchrashuvlar. Bunda quyidagi holatlarda tarbiyaviy tadbirlar o'tkazish maqsadga muvofiq: O'zbekiston Respublikasining madhiyasi «Adolat mezon – yetuklik belgisi» mavzusida uchrashuv; «14-yanvar – Vatan himoyachilari kuni» munosabati bilan «Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir» mavzusida O'zbekiston qurolli kuchlarining yetuk mutaxassisleri bilan uchrashuv; «1-mart – giyohvandlik va giyohvand moddalar bilan savdo qilishga qarshi kurash kuni» bilan bog'liq uchrashuvlar; «1-oktyabr – Xalqaro qariyalar kuni» va «1-oktyabr – O'qituvchilar va murabbiylar kuni»ga oid uchrashuvlar; «5-oktyabr – Xalqaro o'qituvchilar kuni» va «5-oktyabr – Xalqaro shifokorlar kuni»ga bog'liq uchrashuvlar; «24-oktyabr – Xalqaro BMT kuni»ga oid uchrashuvlar; «4-noyabr – «YuNESKO» tashkil topgan kun»ga oid uchrashuvlar va h.k.

9. Matbuot konferensiyasi.

10. Tanlovlar o'tkazish. Bunda ma'naviy-axloqiy tarbiyaga oid tadbirlar amalga oshiriladi va quyidagi yo'nalishlarda olib boriladi: «Krassvord» yechish bo'yicha; «Rebus» tuzish bo'yicha; «Boshqotirma»lar tayyorlash bo'yicha; «Tafakkuringizni sinab ko'ring» va «Intellektual ring» o'yinlari bo'yicha; «Bilimlar o'chog'i»ga va «Oltin toj» o'yinlari asosida; «Shaxs kamoloti o'quvi» va «Yangi fikr» to'garaklari mashg'ulotlari asosida va h.k.

11. Sahnaviy darslar o'tkazish.

12. Matbuot materiallari.

13. O'quv va yordamchi adabiyotlar bilan ishlash.

14. Ma'naviy-axloqiy tarbiyaga oid multimediali tarbiya texnologiyalari. Bunda milliy g'oyani o'rganishga tayyorlangan axborotlashtirilgan ta'lim texnologiyasi, milliy-ma'naviy qadriyatlarni o'rganishga oid «Qadriyatlar» nomli ko'makchili kompyuterli tizim, bunyodkor g'oyalarni o'rganishga oid «Bunyodkor» nomli axborotlashtirilgan ta'lim texnologiyasi, talabalar dunyoqarashini yuksaltirishga oid «Intellekt» nomli kompyuterli tizim, ma'naviy-axloqiy tarbiya berishni optimallashtirishga oid «Axloq» mavzusidagi axborotlashtirilgan intellektual tizim va shu kabilarga e'tibor qaratiladi.

Ustoz - shogird hamkorligidagi asosiy muammolardan biri shogirdlarni ilmiy, ijodiy va ijtimoiy mehnatga o'rgatishdan iboratdir. Mehnat ta'limi va tarbiyasining maqsadi o'quv ishlarida mehnatga nisbatan ongli munosabatni shakllantirishdan iboratdir.

Mehnat ta'limi va tarbiyasini tashkil etishning vazifalari quyidagicha:

1. Mehnatning mohiyatini anglatish orqali o'quvchilarga mehnatning shaxs kamoloti va jamiyat taraqqiyotidagi rolini yoritib berish;

2. Inson mehnati hamda mehnat mahsuli bo'lgan moddiy va ma'naviy ne'matlarni qadrlash, asrab-avaylashga o'rgatish;

3. Mehnat qilishga nisbatan rag'batni, shuningdek, muhabbatni uyg'otish. Bunda aziz avliyolarimiz va boshqa buyuk insonlarimizning mehnat va kasb-hunar bilan hayot kechirganlarini alohida qayd etish;

4. O'quvchilarning mehnatga ijtimoiy burch sifatida yondashuvlarini yuzaga keltirish;

5. Mehnat faoliyatini tashkil etishga ongli ravishda, vijdonan yondashishni odatlantirish;

6. Mehnat faoliyatini jamoa asosida tashkil etish;

7. Mehnatga hayotiy zarurat inson faoliyatining asosi sifatida munosabatda bo'lish;

8. Mehnatni ilmiy asosda tashkil etish borasida mehnat ko'nikmasi va malakalarini shakllantirishni yuzaga keltirish;

9. O'quvchilarda mehnatsevarlik xislatini tarbiyalash; o'z mehnati samarasidan g'ururlanish tuyg'usini shakllantirish;

10. Muayyan kasb-hunar sirlarini o'zlashtirishga erishish va boshqalar.

Yosh avlodning mehnat faoliyati quyidagi yo'nalishlarida rivojlantiriladi va tarkib toptiriladi: mehnat o'yindan ajralgan holda mustaqil faoliyat sifatida shakllantiriladi; mehnat faoliyati jarayonining mohiyatini o'zlashtirishga erishiladi; mehnat faoliyatining turli shakllari vujudga keltiriladi.

O'quvchilar ta'lim jarayonida va darsdan tashqari sharoitlarda mehnatning ijtimoiy jamiyatda tutgan o'rni va rolini, inson kamolotini ta'minlash omili ekanligini, shaxsning qobiliyati va iqtidorini mehnat jarayonida takomillashib borishini hayotiy misollar yordamida bilib olishlari lozim. Mehnat ta'limi va tarbiyasini tashkil etishda bugungi kunda an'anaviy va noan'anaviy shakllardan foydalanilmoqda. Xususan, mehnat bayramlari, ishlab chiqarish ko'rgazmalari, hashar, «mohir qo'llar» tanlovi, «Quvnoq shahar ustaxonasi», o'quv ishlab chiqarish kombinatlari brigadalari, yordamchi xo'jalik, «Yosh radio-texniklar stansiyasi» va ijodiy markazlar faoliyati, shuningdek, ustoz-shogird an'analari asosida faoliyat olib boruvchi yakka tartibdagi kasb-hunar ta'limi va boshqalar.

Mehnat jarayonida o'quvchilarda mehnat madaniyatining unsurlarini hosil qilib borish muhim talablardan biri sanaladi. Mehnat madaniyati – bajarilayotgan ishga ongli munosabatda bo'lish, uni ilmiy jihatdan to'g'ri tashkil etilishi (puxta rejalashtirish, vaqtdan unumli foydalanish), ish o'rnini ozoda tutish, mehnat (ish) qurollariga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish, boshlangan ishni natijalash, uning samarali bo'lishiga erishishga yo'naltirilgan faoliyat ko'rsatkichidir. Mehnat madaniyati tushunchasi o'zida yana o'quvchining mustaqil harakat olib borishini, mehnat qilishi va dam olishini to'g'ri tashkil eta olishni ham aks ettiradi.

Mehnatga ongli munosabatni tarbiyalashning yana bir talabi o'quvchilarni ilm-fan, madaniyat, texnika va texnologiya borasida yangiliklardan bohabar etish, ularga nisbatan qiziqishni hosil qilish, bu boradagi layoqat, qobiliyat va iqtidorlarini oshirib borishdan iborat.

O'quvchilar mehnat faoliyatining turlari hilma-xil bo'lib, ular quyidagilardir:

1. Maishiy mehnat;

2. O'quv mehnati;
3. O'quv ishlab chiqarish mehnati;
4. Texnik mehnat;
5. Ijtimoiy-unumli mehnat;
6. Ijtimoiy-foydali mehnat va boshqalar.

Bolalar bajaradigan ilk mehnat turi maishiy mehnat bo'lib, u o'z-o'ziga xizmat ko'rsatishdan boshlanadi.

Oilada mehnat tarbiyasining dastlabki unsurlari qo'llaniladi. Bola muayyan yoshga to'lgach, kattalarga yordamlashadi, o'z imkoniyatlarini anglab yetadi va o'quv (ta'lim) mehnatiga muntazam tayyorlanib boradi.

Maktabda o'z-o'ziga xizmat ko'rsatishga doir quyidagi mehnat ko'rinishlari davom ettiriladi: sinf xonalari va maktab binosi hovlisini ozoda saqlash, tartib-qoidalarga rioya qilish, xonadagi gullarga qarash, ularni parvarish qilish, gulxonalarda gullarni o'stirish, maktab oshxonasida, sport zali va suv havzalari (basseyn)da o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish kabi yumushlarga o'quvchilarni jalb etadilar. Maishiy mehnat yoki o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish mehnatida mehnatsevarlik, qat'iylik, tashabbuskorlik, olg'a intilish kabi fazilatlar tarbiyalanadi.

O'quv (ta'lim) mehnati o'quvchilarning asosiy mehnat turi hisoblanadi. U boladan katta axloqiy, irodaviy va jismoniy zo'r berishni, kuchni talab qiladi. O'quv mehnati faqat bilim olishni, bilishga oid ko'nikmalarni qaror toptirib qolmay, balki bolada ishtiyoq va betartiblikni tarbiyalashga, o'qishga qiziqishni rivojlantirishga ko'maklashadi, o'qishga bo'lgan qiziqish, istak hamda o'qishdagi muvaffaqiyatlardan hursand bo'lishni his etish aynan maktab partasidan tarbiyalanib boriladi.

O'quvchining aqliy va jismoniy mehnati turli darslarda turli tartibda tashkil etiladi. Xususan, jismoniy tarbiya hamda texnik mehnat darslarida jismoniy mashqlar mazkur darslarning asosini tashkil etsa, matematika, fizika, astronomiya, geografiya va chizmachilik darslarida aqliy faoliyat-mantiqiy fikrlash asosiy o'rin tutadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: Adolat, 2010. - 56 b.
2. O'zbekiston Respublikasi «Ta'lim to'risida»gi Qonuni. Toshkent, 1997.
3. O'zbekiston Respublikasi “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”. Toshkent, 1997.
4. 2004–2009 yillarda maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi //Xalq so'zi g., 2004 yil, yanvar
5. Karimov I.A. Ma'naviy yuksalish yo'lida. – Toshkent: O'zbekiston. 1998 – B. 429
6. Karimov I.A. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: «Sharq», 1997.
7. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. «Muloqat» jurnali, 1998 yil, 5-son.
8. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. - T.: O'zbekiston, 2008. - 174 b.
9. Zunnunov A., Xayrullayev M. Pedagogika tarixi.– T.: Sharq, 2000. - 240 b.
10. G'aybullayev N.R., Yodgorov R., Mamatkulov R. Pedagogika. Toshkent, 2005.-176 b.
11. Pedagogika. Darslik. R.Mavlonov taxriri ostida.-T.: O'qituvchi, 2001. –. 321b.
12. Hasanboyeva O.U., Hasanboyev J., Hamidov X. Pedagogika tarixi. – T.: O'qituvchi, 1997. – 248 b.
13. Hasanboyev J., To'raqulov X.A., Alqarov I., Usmanov N.O'. Pedagogika. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2011.- 482
14. Abdullayeva Sh. va boshq. Pedagogika. T.: «Fan», 2004, 264 bet.
15. Munavvarov A. Pedagogika (o'quv qo'llanma). - T. O'qituvchi, 1996. – 215
16. Olimov Q.T., Nurboyev R.X., Eshpo'latov M.R. Oliy ta'lim darsligi modeli, funksiyalari va unga qo'yilgan talablar. – Toshkent: 2009. -321b.
17. Ahmedjonova A. va boshq. Komil inson davr talabi. T. «Yangi asr avlodi», 2004, 150 bet.